

“SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI” HIKOYASIDA XARAKTER**Madina Teshaboyeva****Turon universiteti Andijon filiali 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17876676>****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining o‘zbek hikoyachiligida tutgan o‘rni, muallif tili va badiiy mahorati, bosh obraz xarakteri tahlili xususida so‘z boradi.

KALIT SO‘ZLAR:

Hikoya, badiiy mahorat, obraz, personaj, xarakter.

ХАРАКТЕР В РАССКАЗЕ “НЕ УДЕРЖАТЬ ВЕТЕР”»**Мадина Тешабоева****Студентка 1 курса Андижанского филиала Туронского университета****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются место рассказа Назара Эшонкула «Не удержать ветер» в узбекской новеллистике, язык автора и его художественное мастерство, а также анализ характера главного образа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Рассказ, художественное мастерство, образ, персонаж, характер.

CHARACTER IN THE STORY “YOU CANNOT CATCH THE WIND”**Madina Teshaboyeva****1st-year student, Andijan Branch of Turon University****ANNOTATION**

This article discusses the place of Nazar Eshonkul’s story “You Cannot Catch the Wind” in Uzbek storytelling, the author’s language and artistic mastery, as well as the analysis of the main character.

KEY WORDS:

Story, artistic mastery, image, character, personality.

O‘zbek adabiyotiga o‘zining yorqin ijodi va badiiy yetuk hikoyalari bilan kirib kelgan yozuvchi Nazar Eshonqulning tariximiz, millatimiz o‘tmishiga oid shunday hikoyalari mavjudki, ular orqali ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, mustamlaka davridagi ayanchli qismati bilan tanishishimiz mumkin. Jumladan, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida rus bosqini ortidan ko‘plab oilalarning boshiga tushgan fojialardan biri qalamga olingan. Yozuvchi hikoyada badiiy tasvir vositasi va so‘z tanlash bilan bo‘g‘liq poetik mahoratini namoyon eta olgan. Shu sababdan ham hikoya o‘zbek hikoyachiligida muhim o‘ringa egadir.

Badiiy adabiyotni obrazlarsiz tassuvvur etib bo‘lmaydi. Badiiy obraz voqealikning jonli tasviri. Badiiy obraz-“Adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiyatning umumiy kategoriyasi” [1. 42-43]. Inson obrazini yaratish muallifdan o‘ziga xos mehnat va mashaqqat talab etadi. Badiiy asarlardagi mavjud personajlarning xarakter darajasiga ko‘tarilishi esa ba‘zan voqealar rivojini tubdan o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Xususan, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi bosh obraz Bayna momo ham

hikoyada tasvirlangani kabi shunchaki yolg'iz, nimjon, kuchsiz, chorasiz va alamzada keksa ayol emas, u favqulodda kuch-qudratga, irodaga va har qanday qo'rquvni chetlab o'tadigan katta yurakka ega inson. Bayna momo hikoya boshida o'zgacha ta'riflagan bo'lsa, bora-bora uning individual xususiyatlari ochilib, personajlar orasida xarakteri ochilib boradi. "Xarakter (y. character – iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi" [2. 354]. Yozuvchi Nazar Eshonqul "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Bayna momo personaji orqali obraz xarakterini shu qadar mahorat bilan ochib boradiki, hikoya kulminatsiyasida o'quvchi xayratlanarli yakun bilan to'qnash keladi. Bayna momo aslida oqko'ngil, aqlli va mehnatkash qishloq ayoli edi. U Tersota qishlog'ining g'ururi va faxriga aylangan Rayim polvon bilan tinch-totuv hayot kechirayotgan edi. Kunlarning birida chorvasini, mol-mulkini bosqinchi hukmron tabaqaga topshirishni istamagan Raim polvonni Zamon otboqar va mirshablar o'spirin o'g'liga qo'shib o'z uyida yaxshiylarcha o'ldirib ketadilar. Bu voqea Bayna momo qalbida ulkan qattiq nafrat, g'azab va qasos o'tini vujudga keltiradi. U 50 yil mobaynida suyangen tog'l va farzandidan judo holda yolg'izlik iskanjasida azob chekadi. Tanho qolgan kezlarda esa u doimo xotiralar girdobiga g'arq bo'lardi. Bayna momoning ko'z o'ngida o'tgan voqealar namoyon bo'laverar edi: "O'sha ayanchli kunda unga hech kim yordam bermadi hatto, yaqin qo'shinlari ham ko'rinmas edi, odamlar suvga cho'kkanday g'oyib bo'lgan, faqat derazalarga tortilgan qora pardalar bu mudhish jinoyatga loqayd va befarq boqib turardilar. Zamon otboqar esa otlarni haydab ketarkan, bir yo'la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo'lgan o'g'lini ham otib tashlaganidan mamnun edi" [3.76].

O'sha kundan etiboran Bayna momo uchun hayot to'xtadi, uning hayolida doim yaqinlarini yo'qotgan kun yashardi. Bayna momo butun boshli qishloqdan yuz o'g'irgan, qalbida qasos kundan-kunga alangalanib borardi. Bayna momo ojizligini hech qachon boshqalarga bildirmasdi. Shu o'rinda "yozuvchi asarga kiritayotgan har bir qahramoniga u xoh bosh, xoh epizodik obraz bo'lsin, ma'lum ma'naviy g'oya yuklaydi, o'z o'rnida bu g'oyani yuzaga chiqishi uchun unga mos xarakter tasvirini yaratadi" [4. 47] degan fikrlar haqiqat ekanligini anglaymiz. Sababi bosh qahramon Bayna momo obrazi ham muallifning muayyan maqsadi sabab oddiy zaifadan kuchli va qasoskor ayolgan aylandi. Qishloqda o'sha mudxish kunda o'z jonini xatarga qo'yishdan qo'rqib yordamga oshiqmagan qo'shnilarini mardlikdan va haqiqatga tik boqishdan mosuvo insonlar deb biladi. Ollomurod tegirmonchining bug'doy orqalab kelgan keksa Bayna momoga qarata "Bunday ovvora bo'lmang, biron erkakdan berib yuborsangiz o'zim uyingizga olib borib beraman" [5.77] degan gaplariga Bayna momoning "Bu qishloqda erkak yo'q" deb javob berishi orqali muallif hikoyadagi muhit, insonlarning o'zaro munosabati, jamiyatdagi og'ir va tahlikali zamonda o'z hayotini saqlab qolishga intilib, ozodlik, erk, haqiqat uchun kurashgan insonlarni pana-panada kuzatishni afzal bilgan olomoning fojeasini aks ettirib bera olgan.

"Asardagi kulminatsion nuqtalar, nafaqat asar voqealarining cho'qqiga yetgan joyi, shuningdek, qahramonlar xarakteri namoyon bo'lishining ham cho'qqi nuqtasidir. Zero, kulminatsion nuqtalar, asosan keskin, ziddiyatli, hayajonga boy daqiqalarda ro'y berar ekan, shaxs xarakterining yashirin, ochilmagan, o'tkir qirralari aynan shu fursatlarda fosh bo'ladi" [6. 51]. Bayna momo oilasining qotili Zamon otboqarning o'limini xotirjam qabul qiladi. Chunki endi uning ko'ngli taskin topgandi. Zamon otboqarning qotili jasadni shu darajada vahshiylarcha burdalab tashlagandiki, yakunda ikkala qo'lining barmoqlari kesib olib ketilgan

edi. Dastlab tergov ishida e'tibor qishloq odamlari qatori Bayna momoga ham qartiladi. Biroq yillar davomida hech kim bilan muloqat qilmay, xotiralar olamida bir sharpadek hayot kechirayotgan nimjon va zaif kampirning qo'lidan tayinli bir ish kelishiga hech kim ishonmaydi. Asl haqiqat hikoya kulminatsion nuqtasida ochiladi. Bayna momo vafot etdi. Uning sandig'idan esa o'zi, marhum eri va o'g'liga tegishli buyumlar, o'limlikka ataganlari va Zamon otboqarning o'nta barmog'i bor edi. bundan bir haqiqat ayon bo'ladiki yillar o'tsa-da ayolning qalbidagi og'riq bitmagan. Har bir kun uning qalbidagi qasos o'tini yanada alangalatib brogan. Bayna momoda favqulodda kuch va iroda uyg'onadi. Fursat tug'ilganda esa bevaqt o'lim bilan to'qnashgan aziz insonlari uchun o'ch oladi. "Xarakter badiiy ijodning juda ko'p unsurlari (syujet, kompozitsiya, til kabi)ni o'zida jamlaydi, to'g'risi o'ziga "ishlashga" majbur qiladi. Ya'ni xarakter asar mazmuniga nisbatan shakl bo'lsa, xarakterga nisbatan syujet, kompozitsiya, til (uslubning butun hiyla-nayranglari) shakldir" [7. 48]. Retrospektiv syujet asosiga qurilgan "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida ham kompozitsion vositalar, asar tili Bayno momoning xakteri ochilishiga xizmat qiladi. Kitobxon hikoya boshida tanigan kekxa va nimjon ayolni asar yakunida butunlay boshqa bir rakrusdan kashf etadi. Bu ham yozuvchining obraz yaratish mahorati yuksak ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda xarakter tushunchasi keng bo'lib, uning asardagi vazifasi ham zalvorlidir. Muallif personajlar xarakterini yaratish va uni alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni kashf etish bilan bir qatorda voqealar rivojiga hamohang tarzda muvofiqlashtirishi ham zarurdir. Arastu "Poetika" asarida "Xarakterlar o'ziga xos bo'lishi kerak: xarakter mardona bo'lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi," - deb yozgan edi. [8.40]. Yuqorida tahlil qilganimiz Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi Bayna momo obrazida mardlik va mardonavorlik bor. Biroq bu uning tashqi qiyofasida aks etmaydi. U oddiygina soddadil, zaifa, kichik jussaga ega hayot qiyinchiliklariga bardosh berib yashab kelayotgan yolg'iz ayol obrazi. Ammo uning yuragidagi kuch ba'zi bir erkaklarga yotdir. Muallif personaj xarakterining hayotiy, ishonarli, badiiyat qoliplariga to'liq mos holda yaratganligi hikoyada ko'tarilgan mavzu va g'oyani o'quvchiga to'liq yetkazib berishga xizmat qilishi bilan bir qatorda hikoya muvaffaqiyatini ham ta'minlab bera olgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Toshken, Akademnashr, 2013.-B. 42-43.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Toshken, Akademnashr, 2013.-B. 354.
3. Nazar Eshonqul. Shamolni tutib bo'lmaydi. -Toshkent, 2005.-B. 76.
4. Turdiyeva Y. Badiiy asarda xarakter. Uzbekistan: Language and Culture 2024/1(2) -B.47.
5. Nazar Eshonqul. Shamolni tutib bo'lmaydi. -Toshkent, 2005.-B. 77.
6. Turdiyeva Y. Badiiy asarda xarakter. Uzbekistan: Language and Culture 2024/1(2) -B. 51.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. -B.48.
8. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. - Т.: "Янги аспр авлоди". 2011. -B.40.